


QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2018 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi 16391,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan (101,7 foizni), shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 9050,4 mlrd.so'mni (95,5 foiz) yalpi chorvachilik mahsulotlari, 7006,1 mlrd.so'mni (111,9 foiz) qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 83,6 mlrd.so'mni (100,4 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 74,6 mlrd.so'mni (84,0 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,3 mlrd.so'mni (125,0 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 176,4 mlrd.so'mni (101,7 foizni) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona tumani (122,1 foiz), Furqat (112,8 foiz), Quvasoy shahar (111,0 foiz), Dang'ara (108,5 foiz) tumanlarida kuzatildi. Marg'ilon shahar (77,9 foiz), Rishton (90,3 foiz) va O'zbekiston (90,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlari kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Oltiariq tumanining ulushi 9,6 foizni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Farg'ona va O'zbekiston tumanlari mos ravishda 8,3 foiz va 6,7 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush esa Qo'qon (1,2 foiz), Marg'ilon (1,5 foiz) shaxarlarida, So'x va Yozyovon tumanlari 1,9 va 3,4 foiz bilan qayd etildi

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,8 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 95,5 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 111,9 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 73,7 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 23,2 foizi – fermer xo'jaliklariga, 3,1 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'satkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 9050,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 95,5 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 56,4 fozni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. 2018 yilning yanvar – dekabr oylarida 545,3 ming tonna (93,7 foiz) don ekinlari, 256,8 ming tonna (100,4 foiz) kartoshka, 837,3 ming tonna (95,8 foiz) sabzavotlar, 62,9 ming tonna (98,1 foiz) oziqbop poliz ishlab chiqarildi. Bundan tashqari 294,9 ming tonna (91,1 foiz) meva va rezavorlar, 145,5 ming tonna (96,9 foiz) uzum yig'ib olindi.

Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiylajining 94,6 foizi, sabzavotlarning 91,2 foizi, meva va rezavorlarning 61,9 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining

82,9 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik




2018 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7006,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 111,9 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 43,6 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar


tomonidan tirik vaznda 165,6 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-dekabrga nisbatan 10,8 foizga ko'p), 1012,8 ming tonna sut (9,9 foizga), 481,6 mln.dona tuxum (37,6 foizga), 1305 tonna jun (2,7 foizga kam) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



■ Fermer xo'jaligi ■ Dehqon xo'jaligi ■ Qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 88,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 96,5 foizi, tuxumning 69,1 foizi, junning 95,6 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.



Pillachilik soxasini rivojlantirishda davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar berilishi, ilg'or texnologiyalarni qo'laniishi, klaster usuliga otish xamda viloyatda takroriy pilla etishtirishni yo'lga qoyilishi xisobiga 2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha jami 1655,0 tonna miqdorida pilla xom-ashyosi etishtirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,7 foizni tashkil etdi.




Viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish, xususan ichki va tashqi bozorlarni arzon va sifatli baliq maxsulotlari bilan to'ldirish bo'yicha viloyatda 300 dan ortiq baliqchilik xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib ular tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarida 5597,1 tonna miqdorida baliq ovlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,5 foizni tashkil etdi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1001,6 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 355,5 ming boshga, qo'y va echkilar – 842,9 ming boshga, parrandalar – 7479,7 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 7 ming boshga (0,7 foizga), shu jumladan sigirlar – 0,1 ming boshga, qo'y va echkilar – 11,1 ming boshga (1,3 foizga) ko'payib, parrandalar – 1402,8 ming boshga (23,1 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



2019 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,8 foizi fermer xojaliklari hissasiga, 94,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 1,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 4,9 foizi fermer xojaliklariga, 94,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiyligi sonidan 9,4 foizi fermer xojaliklariga, 64,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklariga, 25,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda parrandachilik sohasini rivojlantirish va eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek viloyatimizda aholini mahalliy ishlab chiqarilgan sifatli va arzon parrandachilik mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilishi hamda berilayotgan imtiyozli kreditlar natijasida viloyatimizda 2019 yil 1 yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar 7479,7 ming boshni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan




23,1 foizga ko'p, shundan fermer xo'jaliklarda 704,7 ming bosh (30,2 foiz)ga, dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklari) da 4845,8 ming bosh (24,6 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 1929,2 ming bosh (17,1 foiz) ga ko'paygan.

Tuxum yetishtirish barcha toifadagi xo'jaliklarda 481,6 mln.donani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 37,6 foizga, yoki 131,5 mln donaga oshgan, shundan fermer xo'jaliklarda 59,3 mln.dona (45,6 foiz)ga, dehqon (shaxsiy yordamchi xo'jaliklari)da 332,6 mln.dona (24,0 foiz)ga, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 89,7 mln.dona (55,1 foiz)ga ko'paygan.

Viloyatimiz bo'yicha aholi jon boshiga tuxum ishlab chiqarish 132 donadan to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35 donaga yoki 36,0 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Farg'onada viloyatida 2017-2018 yillar yakuni bo'yicha aholi jon boshiga parranda tuxumini to'g'ri kelishi (dona hisobida)



Shunungdek, Hukumatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda viloyatimizda tadbirkorlar tomonidan 2018 yilda jami 85,0 ming AQSH dollarlik (685514 ming so'm) 1692 ming dona tuxum eksport qilinishiga erishildi.